

## **ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BUXORO SHAHRI OBIDALARINING O'RNI:BUXORO ARKI MISOLIDA**

*G'aniyeva O.*

*O'zbekiston Milliy Universiteti magistr*

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoroda etnoturizmga doir qonun va chora tadbirlar shuningdek, etnoturizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan yangiliklar keltirilgan. Shu qatorda Buxoro shahri obidalar, asosan Buxoro Arki tashkil topishi va u to'g'risida umumiyl ma'lumotlar keltirilgan va ko'plab qadamjolar shuningdek asarlar haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Turistik hududlar, tarixiy obidalar, Yetti pir ziyoratgohi, meros obe'ktlari, sayyoh, Buxoro Arki. etnoturizm, turistik resurs.

**Kirish:** Buxoro aholisi mehmondo'st xalq, azal-azaldan millatlararo do'stlik va totuvlik tarafdori bo'lgan. Ushbu qadriyatni davom ettirgan holda Buxoroning eng chekka-viloyat markazidan 220 kilometr uzoqlikda joylashgan qozoqlar istiqomat qiluvchi qishloqchani etnoturizm maskaniga aylantirish belgilangan. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi tegishli chora-tadbirlar 12-bandiga muofiq, Peshku tumani "Jongeldi" mahalla fuqorolar yig'inini etnoturizmga moslashgan mahalla sifatida barpo etish ko'zda tutilgan.

Prezident farmoni, 2017-yil 4-maydag'i PQ-2953 sonli "2017-2021 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Prezident qarorini kiritish mumkin. Mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda Buxoro viloyati mintaqasi va undagi Buxoro shahrining o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi. Bu esa mintaqaning turizm imkoniyatlarini kengaytirish hamda baholash asosida tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini oshirishga alohida e'tibor qaratishni

taqozo qiladi. Mavjud turizm ko‘pincha qadimiy shaharlar va tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda.

Mamlakatimiz turistik resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyoda, xususan vatanimizda ham buyuk avliyolar, olimlar, yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ham, ko‘plab turistlarni o‘ziga jalb etadi. Ko‘pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qayta rekanstruksiya qilinib, asl holatiga qaytarilmoqda.

Butun jahonga tanilgan allomalarimizdan Imom al-Buxoriy, G’ijdivoniy, Bahoviddin Naqshbandiy, Imom al-Moturidiy, Mahmudi A’zam, Zangiota, Shayx Hovand Tohur kabi ko‘plab aziz avliyolar, imomlar maqbaralari musulmon ahli ziyorat qiladigan va ma’naviy oziqa oladigan maskanlarga aylantirilmoqda. Imom Al-Buxoriy majmuosini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyat ega bo‘lib, musulmon olamida bu ziyoratgoh muhim va ahamiyatli ziyoratgoh hisoblanadi.

Ziyoratshi turistlarga infratuzilmalarni shakllantirish bilan ularga qulay shart-sharoit yaratish, bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Xorijiy davlatlar fuqoralari, ziyoratchi turistlarning mamlakatimiz ziyoratgohlariga va boshqa turistik obyektlariga ortiqcha qiyinchiliklarsiz kelib ketishlarini ta’minalash, samarali reklama tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan keng qamrovli shora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **Asosiy qism:**

Muqaddas Buxoro O‘zbekistonning sayyohlik durdonalaridan biridir. Tarixiy shahar markazi YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Shaharning Yoshi 2500 yildan oshgan.

Tarixchi Sayid Muhammadning “Tahqiqoti arki Buxoro” („Buxoro arki haqida tadqiqot“) asari O‘zbekistonning eng qadimiy arxeologik yodgorliklaridan biri bo‘lgan Buxoro arkiga bag‘ishlangan XX asrdagi birinchi qadimiy asardir<sup>1</sup>. Risola 1921-yilda fors tilida yozilgan bo‘lib, bugungi kungacha bitta qo‘lyozma nusxada saqlanib

---

<sup>1</sup> адабиёт

qolgan. Asarning to‘liq nomi „*Tahqiqoti arki Buxoro va salotin va umaroyi u*“ („Buxoro arki, uning sultonlari va amirlari haqida tadqiqot“).

Buxoro arki — O‘zbekistonning Buxoro shahridagi qadimiy ark; atrofidagi maydon sathidan qariyb 20 metr balandlikda ko‘tarilgan va taxminan 4 hektar maydonni egallagan monumental qal‘a. Qal‘a Buxoroning eng qadimiy me’moriy va arxeologik yodgorligi hisoblanadi. Bu qal‘a tepalikni tashkil etgan ko‘p asrlik vayronagarchilik qatlamlariga ega shaharning eng qadimiy qismi hisoblanadi.

O‘z vaqtida Registon maydoni ustida qad ko‘targan Ark buyuklik, qudrat va o‘tib bo‘lmaslik timsoli bo‘lgan. Ark devorlaridan birida bir vaqtlar Buxoro amirligidagi qudrat ramzi bo‘lgan katta charm qamchi osilgan<sup>2</sup>.

Ark dastlab milladan avvalgi I asrda qurilgan. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida (IX—X asrlar) qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniyalar davrida (XI—XII asrlar) va mo‘g‘ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) ark bir necha bor vayron qilingan.

Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniyalar sulolasini davri (XVI asr)da shakllangan.

Eng ko‘hna madaniy meros obyektlaridan bin Ark qal‘asi bo‘lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniyalar sulolasini davrida ansambl holiga kelgan. Ark qal‘asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog‘liqidir. Ma’lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda — Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to‘xtagan va shaharning yaratilishiga asos solgan.

Siyovush Afrosiyob tomonidan o‘ldirilganidan keyin Buxoroning Sharq darvozasiyonida ko‘milgan degan rivoyatlar bor. VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O‘sha davrda ark oldida katta maydon — registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo‘rg‘onlari bo‘lgan. Hokim va uning

---

<sup>2</sup> адабиёт

qarindoshlari qo‘rg’oni yonida asosiy shahar — shahriston joylashgan. Ko‘plab me’moriy yodgorliklarni o‘zida jamuljam etgan ko‘hna Ark qal’asi ko‘p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo‘lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko‘p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal ‘asida hukmdorlar uchun saroy, ko‘rinishxona, masjid va turar-joy binolari bunyod etilgan. Ark qal’asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug’langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko‘rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlar tevaragida shahriston joylashgan - Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani — rabot qurshab turgan<sup>3</sup>.

Ark qal’asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom singari ulug’ insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to‘ g’risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: “Men bu yerdagi kutubxonada shunday kitoblami topdimki, ulami avval ko‘rmaganman va umrimda boshqa ko‘rmadim ham. Men ularni o‘qidim va shundan keyin har bir olimning 0’ z fani bo‘yicha o‘rnini angladim. Mening oldimda fanlaming tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagি kutobxonaning keyingi taqdiri sir bo‘lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo‘lsa ajab emas”, degan ma'lumotlar bor. Ark qal’asi to‘g’risida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyning (899-939-yillar) “Buxoro tarixi” kitobida ham uchraydi.

Buxoro podshosi Bidun bu qal’ani qurdi, ammo u tezda buzildi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin uzoqni ko‘ra biladigan dono kishilarni chaqiradi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi shaklida barpo etishni maslahat berdilar. Ark qal ‘asi ana shu shaklda quriladi, keyin esa u buzilmadi degan ma'lumotlar bor. Ark qal’asi yet ustidagi katta balandlik, u balandligi 20 m Cha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g’arbdan sharqqa cho‘ zilgan noto‘g’ri to‘rtburchak shakliga ega. Janubi-sharq burchagi biroz kesilgan. U qadimiy va hamisha navqiron Buxoro shahrining g’arb tomonida joylashgan<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> адабиёт

<sup>4</sup> адабиёт

Qala devorining uzunligi 789,6 m., balandligi 16-20 m., yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi. Ark qal'asi bir necha mana ta'mirlangan va qayta qurilgan. Ko'tarila boruvchi yo'l (pandus) orqali arkning g'arb tomonidan ulkan yog'och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kiriladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o'ralgan. Ark qal'asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar –“guldastalaf konstruksiyasi va ular oralig'idagi uch qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon yo'lakning Chap devorida 12 ta va o'ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan.

Chap tomondagi tokchalarning ba'zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor.”Guldasta”lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto'la — kanaxonalar bo'lган. Dolonning o'ng tomonidagi o'rta tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvohiga Navro'z bayramlarida Chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo'lган). Dolondan chiqaverishda to'pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto'lada esa qyinoqxona bo'lган.

Undan sal narida (g'arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girrix naqshlar bilan bezatilgan. Ark qal'asining shimoli-g'arb burchagida to'pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zarbxona (Oltin, kumush va chaqa tangalar zerb qiladigan xona) joylashgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida devonbegining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo'lган (ba' zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo'lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli — ko'rinishxona o'rashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o'ralgan.

Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo‘lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo‘g’onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan. Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto‘lalar bo‘lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g’arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan Sharq tomonda mehmonxonalar, mansabдорlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning Sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan. Arkning markazida o‘rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan. Hammomning sharqida duxtarxona — amir haramidagi qizlar uylari o‘rnashgan. Shimoli-sharqi burchakda Chil duxtaron masjidi va Baltol g’ozi mozori bo‘lgan. Arkning sharqiy devori bo‘ylab g’ulombachchalar bo‘lgan.

Ko‘tarila boruvchi yo‘l orqali g‘arbdagi ulkan darvozadan kiriladi . (sharq tomonida ham ilgari darvoza bo‘lgan). Darvozaxona peshtoqining ikki yon tomonidagi „guldasta“ va ular oralig‘idagi 3 qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dalonyo‘lakning chap devorida 12 va o‘ng devorida 13 taxmontokcha qilingan. Chap tomonidagi tokchalarining ba’zilarida obxonaga kiriladigan eshiklar bor. Guldasta (burj)lar tagida zax va dim yerto‘lalar bo‘lgan.

Buxoroning 2500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko‘rish doirasida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida (1990—2016) Arkni qayta tiklash ishlari olib borilgan .

Muqaddas Buxoro O‘zbekistonning sayyohlik durdonalaridan biridir. Tarixiy Shahar markazi YUNESKOni Butunjahon merosi ro‘yhatiga kiritilgan. Shaharning Yoshi 2500 yildan oshgan.

Buxoro arki (Buxoro, 9-12 — arslar) — shaharning qadimiy qal’asi. Ark qal’asi yuz yillar davomida Buxoro hukmdorlarining rasmiy yashash joyi bo‘lgan. U balandligi 16-20 metr bo‘lgan sun‘iy tepalikda qurilgan. Qal'a maydoni qariyb 4 hektar. Milod boshlarida

qurila boshlanib, Somoniylar davri (9-10-asrlar) da ham Ark qayta qurilgan, asosan hozirgi ko'rnishi saqlanibshayboniylar sulolasi davrida shakllangan. Odamlar ko'pincha uni «shahar ichida shahar» deb atashgan, chunki unda odatdagi shaharning hamma narsalari: ko'chalar, tor ko'chalar, saroy, masjidlar, ustaxonalar bor bo'lgan.

Qal'a bir necha bor vayron qilingan, ta'mirlangan va tiklangan. Afsuski, hozirgi paytga kelib, o'tmishdagi hashamatli Arkdan ozginasi qolgan. Ko'plab binolar 1920 yilgi istibdod voqealari davrida buzilib ketgan. Lekin, shunga qaramasdan Ark borib ko'rishga arziydi. Arkda joylashgan o'lkashunoslik muzeyida siz shahar tarixi, miliy urf-odatlar va an'analar to'g'risida ko'p qiziqarli narsalarni eshitasiz. Bundan tashqari qal'aning baland devorlari ustidan turib siz Buxoroning chiroyli qiyofasini tomosha qilishingiz mumkin. Hozirga qadar bu inshoot Buxoro shahridagi eng qadimgi tarixiy obida sanaladi.

Buxoro – Naqshbandiya tariqati yetti buyuk so'fiylarining vatanidir. Tasavvufning buyuk vakillari bu yerda yashab, diniy va ijtimoiy faoliyat olib borib, muborak Buxoroning vujudga kelishi va gullab-yashnashi, ma'naviy tarbiya va hissiy ruhni yuksaltirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bu yerda muqaddas so'fiylarning dafn etilgan joylari – pirlar, islomiy ziyoratgohlar saqlanib qolgan.

Eng mashhur diqqatga sazovor joylari:

Qadimiy sharqona ertakning muhitiga tushib qolishni istasangiz, Buxoroning eng diqqatga sazovor joylarini ziyorat qiling:

Poi-Kalon me'moriy yodgorlik, (*Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tomonidan "sakkizinch mo 'jiza" sifatida tan olingan*);

Ark qal'asi;

Somoniylar maqbarasi;

Chashmai Ayub maqbarasi;

Magaki-Attari masjidi.

Mirzo Ulug'bek madrasasi,

Miri-Arab madrasasi,

Lyabi-Xauz ansamblı va boshqalar.

Hozir Buxoro hududida bir asrdan ko‘proq vaqt oldin qurilgan, turli davrlarga tegishli bo‘lgan 140 dan ortiq yodgorliklar, dahalar va mavzelar saqlanib qolgan. Buxoro nazm va ertaklar shahri deb ham ataladi, chunki butun eski shahar afsonalar va hikoyalar bilan o‘rangan! Aytgancha, shaharning tarixiy qismi 1993 yilda YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Sayyid Muhammad Nosirning 1921 yilda fors tilida yozilgan “Tahqiqoti arki Buxoro” (“Buxoro arki haqida tadqiqot”) asari yagona qo‘lyozma nusxada saqlanib qolgan. O‘zbekistonning eng qadimiy me’moriy obidalaridan biri bo‘lgan Buxoro arki tarixiga bag‘ishlangan bu asarda arkning ilk bor bunyod etilishidan tortib, turli asrlarda ro‘y berган siyosiy voqealar tufayli bir necha bor vayron bo‘lib, so‘ngra qayta tiklanishi bayon qilingan. Ayniqsa, asardagi ashtarxoniyalar va mang‘itlar sulolalari hukmronlik qilgan yillarda Arkda amalga oshirilgan qurilishlarga doir ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning o‘zbek va rus tillariga tarjimalari hamda nodir qo‘lyozmasi faksimilesini o‘z ichiga olgan ushbu nashr mutaxassislar va o‘lkamizning o‘tmish madaniyati tarixiga qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan.

**Tadqiqotlar:** 1990-yil arxeologlar tomonidan olib borilgan qazish ishlari natijasida Amir mehmonxonasi hisoblangan xonaqoh va uning atrofidagi hujralarning poydevorlari, hovli ichkarisidagi supa, toshnov, tazar, sandal va yaxxonalar ochildi. Hammom tuzilish jihatdan murakkabligi yer osti tazarlari umumiylar tarmoqqa bo‘ysundirilganligi, shahar tashqarisidagi zahkashga qadar cho‘zilganligi, to‘rt tomonidagi gulax (o‘txona)lari doimiy ravishda bir xil issiqlik berib turishi, yaxxonada muzni to kech kuzgacha saqlay bilishganligi aniqlandi.

Buxoroning 2500-yilligi munosabati bilan ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta’mirlanib, o‘z holiga keltirildi. Ark devorlari yangilandi. „Go‘riyon“ darvozasi qayta tiklandi va boshqa obodonlashtirish ishlari olib borildi. Yer sathidan 2,5-3 m chuqurlikda gumbazsimon yer osti yo‘li borligi aniqlangan. Arkda Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzey qo‘riqxonasi joylashgan. Balandligi 20 m cha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan arkning maydoni 4 ga, tarhi ko‘pburchakli. Turli

davrlarda devorlari tosh, pishiq va xom g‘isht, paxsalar bilan mustahkamlangan. O‘pirilib tushgan joylari dastlab xom gishtdan, keyin pishiq g‘ishtdan ta’mir etilgan.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish joizki buxoroda etnoturizmni rivojlanishi, Buxoro qadimgi obidalari hususan Buxoro Arki misolida ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga Buxoro Arkida tadqiqot ishlari bilan o‘rganilishi to‘g’risida so‘z borgan.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Buxoro ixtisoslashtirilgan “jayron” pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishdagi o‘rni | центр научных публикаций (buxdu.uz)
2. 35 Eshiniyazov Berdiniyaz Añsatbay ulı 243-251.pdf (oriens.uz)
3. Buxoro arki - Vikipediya (wikipedia.org)
4. Buxoro | Sayyoohlar, sayohatchilar uchun shahar qo‘llanmasi | Buxorodagi qiziqarli, mashhur joylar va diqqatga sazovor joylar | Buxoro shahri haqidagi fotosuratlar, videolar, xaritalar, sharhlar va sayyoohlilik maslahatlarini ko‘ring | Uzbekistan Travel
5. Buxoro arki Buxoro da (advisor.travel)
6. Buxoroning 7 piri | Uzbekistan Travel
7. Tahqiqoti arki Buxoro - Vikipediya (wikipedia.org)
8. Buxoro arki haqida ma`lumot bering. (test-uz.ru)
9. Etnoturizm: Olis qishloqda tashkil etilayotgan mehmon uylari (uza.uz)
10. "Tahqiqoti arki Buxoro" китоби, Sayyid Nosir (kitobxon.com)
11. Buxoroning Ark qal’asi - Vikipediya (wikipedia.org)